

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.15.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RAXIMOVA GULNORA ELYOR QIZI

**TALABALARNI LOYIHAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH
METODIKASI (DIZAYN-LOYIHALASH FANI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Raximova Gulnora Elyor qizi

Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlash metodikasi (Dizayn-loyihalash fani misolida)..... 3

Рахимова Гулнора Эльёр кизи

Методика подготовки студентов к проектной деятельности (на примере дисциплины-дизайн-проектирование) 27

Rakhimova Gulnora

The methodology for preparing students for project activities (as an example from the Design-Project subject) 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 59

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.15.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RAXIMOVA GULNORA ELYOR QIZI

**TALABALARNI LOYIHAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH
METODIKASI (DIZAYN-LOYIHALASH FANI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9378 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (namdtu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Asqarova O‘g‘ulxon Mamashakirovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nabidjanova Nargiza Nasimjanovna
texnika fanlari doktori, professor

Qodirova Zohidaxon Sobirovna
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.15.03 raqamli Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil “24” aprel soat 15:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Namangan shahar, Janubiy aylanma yo‘li ko‘chasi, 17-uy, Tel. (998) 69-234-14-85,(998) 69-234-19-96. e-mail: info@namdtu.uz , Namangan davlat texnika universiteti 15-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetida Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№161-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Namangan shahri, Islom Karimov ko‘chasi 12-uy, Tel. (998) 69-234-14-85). e-mail: info@namdtu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “11” aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil 03-noyabrdagi №70-raqamli reestr bayonnomasi).



Q.M.Xoliqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

X.T.Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

J.K.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda pedagogik va kasbiy kompetentlikni turli yondashuvlar orqali tadqiq qilishga, zamonaviy ta'lim talabalarida ijodiy qobiliyatlarini kashf etishga hamda talabalarini kreativ fikrlashini aniqlashga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada jumladan, kompetentlikning mohiyati va tuzilishiga turli tadqiqot metodlari orqali yondashish, "inson-inson" tizimida ishlovchi turli kasb egalarining kompetentligini baholash, kompetentlik tarkibida pedagogning bilimi va mahorati uyg'unligi, uning o'z kasbiga munosabati, aniq maqsadni ko'zlab faoliyat olib borishi masalalarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, loyiha asosida o'qitish (PBL) va dizayn fikrlash texnologiyalarining integratsiyasi talabalarda mustaqillik, refleksiya va jamoaviy hamkorlikni shakllantiradi. Jahon tajribasida PBL modeli STEM/STEAM, ARIZ-TRIZ va SMART-ta'lim konsepsiyalari bilan uyg'unlashgan bo'lib, o'quv jarayonining samaradorligini oshirmoqda. Bu yondashuv ta'limni amaliyot bilan bog'laydi va kasbiy-amaliy kompetensiyalarni mustahkamlaydi. B.Blum taksonomiyasi¹ asosidagi bosqichma-bosqich o'qitish tizimi esa bilish jarayonini chuqurlashtirib, dizayn ta'limi talabalarida innovatsion tafakkur va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Shu bois, dizayn yo'nalishi talabalari uchun loyihaviy faoliyatga tayyorlash metodikasini ilmiy asoslash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahon tajribasida dizayn ta'limi tizimida loyihaviy yondashuv (Project-Based Learning, PBL) ta'limning innovatsion modeli sifatida keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuv orqali talabalarda ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, amaliy loyihalash va tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, Finlyandiyada dizayn ta'limi STEAM ta'lim modeli asosida tashkil etilib, fanlararo integratsiya va amaliy faoliyat orqali metakompetensiyalar shakllantirishga, AQSHda "Design Thinking" va "Maker Education" konsepsiyalari asosida ta'lim jarayonida innovatsion muhitda faol ta'lim oluvchi shaxsni shakllantirishga, Yaponiya va Koreya tajribasida esa dizayn ta'limi raqamli modellashtirish, virtual simulyatsiya va kreativ platformalar orqali amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada dizayn ta'limida shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvni mustahkamlashga, talabalarda kasbiy-amaliy kompetensiyalarni, innovatsion tafakkur va vizual ijodkorlikni rivojlantirishga doir tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, talabalarda kasbiy-amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart- sharoitlarini o'rganish hamda loyihaviy faoliyatga tayyorlash asosida uning tashkiliy-pedagogik tuzilmasini ishlab chiqish kabi yo'nalishlarda maqsadli ilmiy izlanishlarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida talabalarda kasbiy-amaliy va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish, talabalarining loyihaviy faoliyatga tayyorgarligini oshirish, ta'lim jarayonini loyihalashtirish, amaliy topshiriqlarni ijodiy hal etish, shuningdek, texnologik tafakkurni rivojlantirishga

¹Benjamin S. Bloom. Taxonomy of Educational Objectives. The Classification of Educational Goals, Handbook, Longmans and Green Co LTD, London, UK, 1956

asoslangan metodik yondashuvlar ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2030-yilgacha mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasida, jumladan, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, talabalarni loyihaviy faoliyatining tashkiliy tuzilmasi va kasbiy-amaliy kompetensiyalari mazmunini takomillashtirish, o'quv jarayonini pedagogik loyihalash, loyihaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish va talabalarning amaliy faoliyatini ilmiy asosda yo'naltirish, ijodiy topshiriqlar tizimi orqali talabalarni kasbiy-amaliy kompetensiyalarini takomillashtirishga qaratilgan ushbu ilmiy izlanishlar muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi PQ-4433-sonli "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, 2020-yil 3-dekabrdagi PQ-1551-sonli "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 222-sonli va 2022-yil 18-yanvardagi 30-sonli "Iqtidorli yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga jalb etish, ularni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish" ga oid Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dizaynerchilar uchun interaktiv o'quv muhitlarini yaratish, raqamli tizimlar yordamida loyihalash jarayonlarini simulyatsiya qilish, pedagogik omillarni tahlil etish, ta'lim jarayonining qonuniyat va tamoyillarini aniqlash, ijodiy qobiliyat nazariyasi va uni rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish, texnika oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish hamda dizayner faoliyatining samaradorligini oshirish, ijodkorlikning intellektual asoslari, tafakkur jarayonidagi o'ziga xosliklar hamda ularning shaxs rivojlanishidagi roli chuqur o'rganish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish modeli (ARIZ-TRIZ)I taklif etish, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish dasturlari va pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini boyitish, ijodiy faoliyatda motivatsiya, qadriyat yo'nalganlik va shaxsiy fazilatlarining o'rnini asoslash kabi masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan, V.V. Bogoslovskiy, N.Yu. Postalyuk, V.S. Bezrukova, D.V. Chernileskiy, V.I. Zagvyazinskiy, G.S. Altshuller, V.I. Andreyev, P.N.

Antonov, S.L. Rubinshteyn, K. Rodjers, M.G. Davletshin, N.F. Vishnyakova, I.V. Lapchinskaya, I.P. Ivanov, V.N. Pushkin, O.G. Smolyaninova, D.B. Gorshkova, N.I. Mokritskaya, T.A. Barysheva, G. Ayzenk, D. Veksler, R. Stenberg va R. Vaysberg, G.S. Altshuller, B.L. Farberman, E. Bono, V.A. Slastyonin, D.V. Makkion, A. Maslou, A. Tannenbaum, D.B. Bogoyavlenskaya, A.M. Matyushkin, A.N. Luk, Ya.A. Ponomarev, J. Renzulli va N.S. Leytes va boshqalar.

Axborot va raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiyalashning konseptual tamoyillari va bosqichlari masalalarini tadqiq qilish, bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik modellashtirish usulining ahamiyati tahlil qilish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish, bo'lajak muhandislarning fizikadan amaliy kompetentligini shakllantirishning metodikasi va uning ta'lim jarayonida qo'llash, modellashtirish usulining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va uning bo'lajak muhandislarning kartografik kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni yuzasidan tadqiqotlar amalga oshirishga O'zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, P.Q.Xolmatov, T.Z.Sharifova, R.M.Mirkamolovna, Sh.Rahimov, M.Kadirov, S.X.Abdullayev, N.A.Muslimov, T.V.Volkova, S.Sh. Tashpulatov, N.N. Nabidjanova, M.K. Rasulova, S. U. Po'latovalar olib borgan ilmiy tadqiqotlar natijasida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini belgilash, sintetik tafakkur, kognitiv jarayonlar va shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish kabi masalalarini yechishda salmoqli natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, "Dizayn ta'lim yo'nalishida talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi ("Dizayn-loyihalash" fani misolida)" masalasi maxsus tadqiq etilmaganligi hamda talabalarni loyihaviy faoliyatga metodik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilmaganligi kabi muammolar yetarli darajada hal qilinmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya mavzusi bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti FZ-2020010829-sonli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini loyihaviy faoliyatga metodik tayyorgarligini rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dizayn ta'limi yo'nalishi talabalarida kasbiy-amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari holatini, pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish;

talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashda kasbiy-amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan markazlashtirilgan, individual amaliy-kasbiy (ARIZ-TRIZ va SMART) masalalar, topshiriqlar ta'limi jarayonini loyihalash metodikasi va amalda joriy etishning metodik ta'minotini ishlab chiqish;

dizayn ta'limi yo'nalishi talabalarini loyihaviy faoliyatga tayyorlash asosida kasbiy - amaliy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonining tashkiliy -

pedagogik tuzilmasini ishlab chiqish va amaliyotda tatbiq etish;

dizayn ta'limi yo'nalishi talabalarini kasbiy-amaliy kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini aniqlash ko'rsatkichlari va mezonlarini tanlash, ta'lim jarayoniga moslashtirish, tajriba- sinov ishlarini tashkil etish va olingan natijalarni tajriba-sinov natijalari orqali matematik-statistik ishlov berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida texnika oliy ta'lim muassasalari dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarida loyihaviy faoliyatga metodik tayyorgarligi jarayoni tanlangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga, Jizzax politexnika instituti, Namangan davlat texnika universiteti va Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti talabalaridan 346 nafar respondent talabalar hamda o'qituvchilari jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini loyihaviy faoliyatga metodik tayyorgarligini takomillashtirish mazmuni, vosita, shakl va metodlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik-psixologik va ilmiy adabiyotlarni o'rganish hamda tahlil qilish, malaka talablari va o'quv dasturlari, o'quv tarbiya faoliyatini kuzatish, taqqoslash, tashis usullari, anketa, test-so'rovnomalar o'tkazish, loyihalash, modellashtirish, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish, psixodiagnostika, natijalarni matematik-statistik ishlov berish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

dizayn ta'limi yo'nalishi talabalarini loyihaviy faoliyatining tashkiliy tuzilmasi (kognitiv, operatsion-pragmatik, shaxsiy ijodiy, aksiologik) va kasbiy-amaliy kompetensiyalari mazmuni (motivatsion, qadriyatli, kognitiv, amaliy-operatsion, texnologik innovatsion) "SMART" metodi asosida takomillashtirilgan;

kasbiy-amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan o'quv-ijodiy mashqlar va amaliy ijodiy testlarni bajarishda markazlashtirilgan individual amaliy ta'limini loyihalash orqali "Ariz-Triz" o'quv amaliy loyihaviy topshiriqlardan foydalanishning tashkiliy didaktik ta'minoti takomillashtirilgan;

o'quv jarayonini pedagogik loyihalashda dizayn ta'lim yo'nalishi malaka talabalaridan kreativ va ijod birligi tamoyili hamda loyihaviy faoliyatning mazmuniy ko'rsatkichlarini "Blum taksionomiyasi" metodi asosida sintezlash ijodiy topshiriqlar tizimi orqali kasbiy-amaliy kompetensiyalarni takomillashtirilgan o'quv-metodik ta'minoti ishlab chiqilgan;

kasbiy-amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishning me'yoriy-mazmuniy (o'quv-kasbiy faoliyat), protsessual (metodik va amaliy texnologik jarayonlar) va natijaviy-baholash (bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez, baholash) komponentlarini kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatli, sinergetik yondashuvlar asosida integratsiyalash natijasida dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy-amaliy kompetentligini baholash mezonlari (motivatsion-kognitiv, kreativ-jarayonli, izlanishli-integrativli) ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini loyihaviy faoliyatga metodik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi takomillashtirildi va pedagogik-psixologik mexanizmlari, tamoyillari va yondashuvlari nazariy-ilmiy asoslangan;

dizayn loyihalash fanini o'zlashtirish jarayonida ijodiy yondashuvni rivojlantirishga doir zamonaviy ta'lim texnologiyalar (Keys-stadi, dekompozisiya-klastar usuli, aqliy hujum, Ariz -Triz metodi, Tushunchalar tahlili, Kichik guruhlarda ishlash, Nima uchun) va didaktik materiallardan foydalanib metodik ta'minot ishlab chiqilgan;

dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini loyihaviy faoliyatga metodik tayyorgarligini rivojlantirish uchun dizayn loyihalash fanidan (kurs) mashg'ulotlar uchun "Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi" dasturi ishlab chiqilgan;

dizayn loyihalash fani o'qitiladigan barcha bakalavriatura talabalari uchun mo'ljallangan texnika oliy ta'lim talabalari uchun "Izoxli lug'at" o'quv qo'llanmasi chop etilgan va amaliyotga joriy qilingan. Natijada dizayn loyihalash fanini o'zlashtirish samaradorligi oshirilgan va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga erishilgan;

dizayn loyihalash fani (kurs) o'qitiladigan barcha bakalavriatura talabalari uchun "Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi" qisqa kurs mashg'ulotlari uchun metodik qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan;

dizayn loyihalash fanini o'rganishda texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarni kasbiy-amaliy kompetensiyasini shakllantirish mezonlari va darajalari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashda takomillashtirishga doir respublika va xorijiy manbalarning qiyosiy-tahliliy o'rganilganligi, tadqiqotning mazmuni va asosiy yo'nalishlari nazariy jihatdan asoslanganligi, to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi va ilmiyligi, maqsadga muvofiq ravishda tadqiqotning obyekti va predmeti belgilanganligi, vazifalari aniq qo'yilganligi, ilgari surilgan ilmiy g'oyalar pedagogik tadqiqotlarga mos tarzda tashkil etilgan tajriba-sinovdan o'tkazilganligi hamda ularning samaradorlik darajasi eksperimental tarzda tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan dizayn ta'lim loyihalashi talabalarini loyihaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik jarayonlari o'qitishning didaktik vositalari, o'quv jarayonining metodik tizimi modeli ishlab chiqilgani, shu bilan birga talabalarning loyihalash-konstruktorlik faolligini, integrativ texnologiyalar vositasida o'qitish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida fanning metodik tizimi hamda modeli takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hozirgi kunda dizaynchilarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda oliy ta'lim muassalarida tayyorlanadigan dizaynchilarning kasbiy-amaliy kompetensiyasini rivojlantirish modelini qo'llashning didaktik imkoniyatlarining kengaytirilgani hamda texnika ta'lim muassasalarining "Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalari" mazmunini boyitish, malaka oshirish kurslari dasturlarini takomillashtirishda hamda talabalarda loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini loyihaviy faoliyatga metodik tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

dizayn loyihalash fanini o'qitishda o'quv mashg'ulotlarida talabalarni metodik faoliyatga tayyorlashda "SMART texnologiya" ayni paytda texnologiya olamida keng qo'llaniluvchi ibora bo'lib Dizayn-loyihalash faniga qaratilgan ma'lumotlar bazalarini, axborot tizimlarini yaratish, ulardan foydalanish, xizmatlar ko'rsatish hamda amaliy uslubiy ta'minlash modeli ishlab chiqishga doir O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan FZ-2020010829-sonli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari" mavzusidagi amaliy loyihada belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. Natijada "Dizayn loyihalash" fanini o'qitishda o'quv mashg'ulotlarida talabalarni metodik faoliyatga tayyorlash imkoniyati ortib borgan.

Dizayn loyihalash fanini o'qitishda texnika oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislarining ijodkorlik qobiliyatlarini va ijodiy yondoshuvlarini rivojlantirishga imkon beradigan metodik ta'minoti (didaktik o'quv materiallar, fanga oid ijodiy masalalar, multimedia vositalari) yaratishga doir tavsiyalardan loyihalashkompetensiyasini rivojlantirishning motivatsion, kognitiv, operatsional-pragmatik va shaxsiy-ijodiy va aksiologik komponentlarni qamrab oluvchi zamonaviy tarkibiy komponentlar ishlab chiqishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalar uchun "Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi" nomli uslubiy metodik qo'llanma yaratilgan. Natijada Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini loyihaviy faoliyatga metodik tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha turli texnologiyalar AKT va didaktik o'yinlardan foydalanilgan.

Dizayn loyihalash fanini o'qitishda texnika oliy ta'lim muassasalari ijodiy yondoshuvlarini rivojlantirishga imkon beradigan metodik ta'minoti (didaktik o'quv materiallar, fanga oid ijodiy masalalar, multimedia vositalari) yaratish bo'yicha xulosa va tavsiyalangan "Pedagogik texnologiyadan izohli lug'at" nomli o'quv qo'llanmadan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 429-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 429-767-sonli ruxsatnomasiga) muvofiq nashr qilingan va amaliyotga tadbiiq etilgan. Natijada Dizayn loyihalash fanini o'qitish samaradorligini oshirilishiga erishilgan.

Dizayn loyihalash fanini o'qitishda bo'lajak mutaxassislarning ijodiy faolligini pedagogik texnologiyalar (muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, taqqoslash va qaror qabul qilish) asosida o'z fikrlarini erkin bayon etish va amalda tadbiiq eta olish ko'nikmalarini oshirish, rivojlantirish metodikasi (tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash, qobiliyat, yaratuvchanlik, izanuvchanlik, intilish va qiziqish, ixtirolar yaratish) samaradorligi eksperimental asoslangan samaradorligi O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2025 yil mart va avgust oylaridagi "Yeti rang", "O'zbekiston yoshlari", "Ta'lim va taraqqiyot" dasturlarini samarali tashkil etishda, ularning dastur va ssenariylarini tayyorlashda mazmuniga singdirilgan (2025y 26 avgust 05-09-1369-son ma'lumotnomasi). Natijada Dizayn loyihalash fanini o'qitish samaradorligini oshirilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalari Namangan davlat texnika universiteti, Jizzax politexnika instituti va Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutlarida "Dizayn (kostyum)" va dizayn ta'lim yo'nalishlarida sinovdan o'tkazildi va ulardan ijobiy natijalar olindi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy jurnallarda, 6 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 125 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Texnika oliy ta'lim muassasalari dizayn yo'nalishi talabalarini loyihalash metodi asosida metodik tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida kasbiy-amaliy kompetentlik tushunchalari uning mazmun mohiyati, kasbiy-amaliy kompetensiya tuzilmasi texnika oliy ta'lim muassasalarida dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini loyihaviy faoliyatga tayyorlash hamda talabalarda kasbiy-amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va talabalarni kasbiy-amaliy kompetentligi yoritilgan.


Kasbiy-amaliy kompetentlik - bu mutaxassisning kasbiy faoliyatida integrativ bilim, amaliy tajriba va funksional savodxonlik asosida nazariy bilimlarni amaliy jarayonlarda samarali qo'llay olish, refleksiv tahlil va tanqidiy fikrlash asosida mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarda adaptiv va innovativ yechimlar topish qobiliyatidir. Kasbiy-amaliy kompetentlik o'z ichiga uch asosiy tarkibiy qismni qamrab oladi (1-rasmga qarang):

Kognitiv komponent - kasbiy sohadagi nazariy bilimlar, fanlararo integratsiya va metapredmetli munosabatlarni o'zlashtirish darajasini ifodalaydi.

Operatsional-pragmatik komponent - amaliyotda bilimlarni qo'llash, kasbiy vazifalarni bajarish texnologiyalarini bilish va amaliy faoliyatni samarali tashkil etish mahoratini qamrab oladi.

Shaxsiy-ijodiy va aksiologik komponent - tashabbuskorlik, mas'uliyat, mustaqillik, kreativ fikrlash, innovatsion madaniyat va kasbiy qadriyatlarga sadoqat kabi shaxsiy fazilatlarni namoyon etadi.

Kasbiy-amaliy kompetentlik amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim tizimining indikativ natijasi sifatida namoyon bo'lib, u talabaning metodologik savodxonligi, praktik kreativligi va kasbiy adaptivligini ta'minlaydi.



1-rasm. Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy-amaliy kompetentlikni tarkibiy qismlari

Kreativlik (lot. *create* - “yaratmoq”, ingl. *creative* - “yaratuvchi”, “ijodkor”) - bu shaxsning yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotda qo'llay olish va kompozitsiyalarga shakllarga material va texnologiyalarga yangilik kirita olish hamda amaliy tayyorlikka asoslangan intellektual-psixologik xususiyatlar majmuidir.

Dizayn ta'limi jarayonida kreativlik talabaning kompozitsiya, shakl, material va texnologiyalar bilan ishlashda original yondashuv ko'rsata olishi, vizual va konstruktiv fikrlash qobiliyatini namoyon etishi, estetik idrok va innovatsion g'oyalarni ijodiy loyihalar orqali amalda ifodalay bilishida ko'rinadi, xususan dizayn ta'limi yo'nalishi talabalarida kreativlik - bu faqat yangi g'oya yaratish qobiliyati emas, balki ularni kasbiy-amaliy faoliyat, loyihalash, modellashtirish va konstruksiyalash jarayonlarida hayotga tatbiq eta olish bilan belgilanadigan kasbiy-ijodiy kompetentlikning asosiy ko'rsatkichidir.

Kreativlik atamasi ilk bor Angliya-Amerika psixologiyasida 1960-yillarda paydo bo'lgan bo'lib (J. Guilford, N. Rogers, A. Maslow), u insonning yangi tushunchalar yaratish, mavjud bilim va ko'nikmalarni qayta integratsiya qilish qobiliyatini ifodalaydi. J. Guilford kreativlikni quyidagi individual qobiliyatlar orqali tavsiflaydi: - fikrni maqsadga muvofiq yo'naltira olish; - originallik, ya'ni o'zgacha yondashuvni (siluetni) topa bilish; -qiziquvchanlik va tajribaga ochiqlik; - farazlar yaratish va ilmiy tasavvur qilish qobiliyati; - fantaziya va kreativ fikrlash faoliyati.

N.F. Xoroshkon fikricha, kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosiy qoidalaridan biri - “talabalarni muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlashga va yangi yechimlar topishga oldindan tayyorlash”dan iborat. Bu, ayniqsa, dizayn ta'limida muhim ahamiyatga ega, chunki har bir loyiha (model, siluet) - bu muayyan muammoni ijodiy yechim orqali hal qilish jarayonidir.

A.T. Shumilinning ta'kidlashicha, “kreativlik - yangi moddiy va ma'naviy boyliklar yaratish jarayoni” bo'lib, dizayn faoliyatida bu yangi kiyim modellari eskizlari ustida ish olib borish jarayonida turli grafik tasvirlash usullarini va texnikalarni qo'llash, uslublar, vizual yechimlar va innovatsion g'oyalarni amalga oshirish orqali namoyon bo'ladi.

A.X. Maslow kreativlikning ikki darajasini ajratadi:


1. Ixtiyorsiz kreativlik - bu ilhomlanish, ichki hissiy to'ldinlanish orqali paydo bo'ladigan ijodiy holat bo'lib, dizaynerda loyihani konsepsiyalash jarayonida namoyon bo'ladi;

2. Ixtiyoriy kreativlik - uzluksiz mehnat, tajriba va bilim asosida rivojlanadigan ijodkorlik bo'lib, u dizayner shaxsining kasbiy-amaliy kamolotini belgilaydi. Dizayn ta'limi yo'nalishi talabalarida kreativlik - bu talabaning vizual va konstruktiv fikrlash salohiyatini rivojlantirish, yangi g'oyalarni amaliy loyihalar orqali ifodalay olish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. U amaliy mashg'ulotlarda mustaqil izlanish, estetik tafakkur va innovatsion yechimlar yaratish orqali namoyon bo'ladi.

Dizayn ta'limi jarayonida loyihalash faoliyati ikki asosiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Birinchisi - ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan loyihalash texnologik jarayon bilan o'xshashlikda qaraladi.

Ikkinchi - ijtimoiy-pedagogik jihatdan esa loyihalash dizayn ta'limi sub'yektlarining ijodiy o'sishi va shaxsiy rivojlanishini ta'minlovchi faoliyat turi sifatida talqin qilinadi.

Mazkur tadqiqotda loyihalovchi sub'yekt sifatida dizayn ta'limi yo'nalishida taxsil olayotgan talabalar qaraladi. Ular loyihalash faoliyatini samarali amalga oshirish uchun nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy tafakkur, vizual madaniyat, kreativ fikrlash va refleksiv yondashuvni chuqur egallashi zarur. Talabalar pedagogik dizayn metodologiyasi asosida o'quv loyihalarini tuzish, kompozisiya va shakl yechimlarini ishlab chiqish, vizual axborotni tahlil qilish hamda innovatsion g'oyalarni ilgari sura olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.



2-rasm. Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy-amaliy kompetentligi tuzilmasi

Dizayn sohasida loyihalash - bu pedagogik va tahliliy faoliyatning muhim qismi bo'lib, u g'oya yaratish, vizual va konseptual modellar tuzish, estetik kompozisiya ishlab chiqish hamda innovatsion yechimlarni amaliyotda qo'llash jarayonini o'z ichiga oladi.

Ijodiy daraja - bu dizayn ta'limida yangi g'oya, konsept, shakl va vizual obrazlarni yaratish, estetik innovatsiyalar va dizayn fikrlashni amaliyotga tatbiq etish jarayonidir.

Shaxsiy daraja - bu talaba-dizaynning individual uslubi, hissiy tafakkuri, estetik didi, vizual idrok madaniyati va kreativ yondashuvi orqali ifodalanadigan ijodiy-pedagogik jarayondir.

Olib borilgan tahlillarga asoslanib dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy amaliy kompetentligi tuzilmasi ishlab chiqildi yuqoridagi (2-rasmga qarang).

Taklif etilgan tuzilmada dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini egallashi kerak bo'lgan kasbiy amaliy va muhim shaxsiy sifatleri keltirilgan, hamda loyihalash faoliyatiga tayyorlash mezonlari shu tuzilmadan kelib chiqib aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida dizayn ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni kasbiy-amaliy kompetentligini rivojlantirishda umukasbiy va ixtisoslik fanlarini mazmuni va ahamiyati loyihaviy faoliyatda kasbiy-amaliy kompetentlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy-amaliy kompetentligini rivojlantirishda dizayn ta'lim muhiti, dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini loyihaviy faoliyatga tayyorlashda kasbiy-amaliy kompetentlini rivojlantirish metodikasi, modeli dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini ijodiy faoliyatini loyihaviy faoliyatini va kasbiy-amaliy kompetentligini rivojlantiruvchi evrestik metodlar, Smart texnologiyalar va elektron ta'lim resurslardan foydalanib amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bilan bog'liq ijodiy kasbiy-amaliy masalalar yoritilgan.

Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini tayyorlash mazmuni va tuzilishi O'zbekiston Respublikasining Davlat ta'lim standartida belgilangan malakaviy talablar asosida shakllantiriladi. Mazkur yo'nalishda ta'lim oluvchilarning kasbiy-amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy bilim bilan bir qatorda loyihaviy faoliyat muhim o'rin tutadi.

Loyihaviy faoliyat – bu dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarining belgilangan vaqt davomida aniq dizayn muammosini hal qilishga qaratilgan, tahlil, tadqiqot, ijodiy yaratish va taqdimot bosqichlarini qamrab olgan faoliyatidir. Bunday faoliyatda talabalar nazariy bilimni amaliyot bilan bog'laydilar, dizayn tafakkurini rivojlantiradilar, estetik did, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni takomillashtiradilar. Ta'lim jarayonida loyihaviy faoliyatni qo'llash an'anaviy ma'lumot berish usulidan farqli ravishda, talabani faol ijodiy ishtirokchiga aylantiradi.

Dizayn ta'lim yo'nalishida talabalar guruhlarda yoki individual tarzda ishlab, aniq dizayn loyihasi yoki vizual mahsulotni yaratishni maqsad qiladilar. Bu jarayon ularida quyidagi muhim kasbiy-amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi: mustaqil qaror qabul qilish va muammoga dizaynerlik nuqtai nazaridan yondashish; axborotni izlash, tahlil qilish va vizual yechimlar orqali qayta ifodalash; jamoada ijodiy hamkorlik qilish va muloqot orqali dizayn konsepsiyasini asoslash; o'z faoliyatini rejalashtirish, muddat va talablar asosida loyiha hujjatlarini tayyorlash; estetik, ergonomik va texnologik mezonlar asosida yechimlarni baholash.

Bunday yondashuvda o'qituvchi – o'ynaltiruvchi (moderator), maslahatchi va dizayn jarayonining moderatori sifatida namoyon bo'ladi, talabalar esa faol ijrochilar

va ijodiy yechim yaratuvchilar hisoblanadilar. Bu esa dizayn ta'limida shaxsga yo'naltirilgan va amaliyotga asoslangan ta'lim modelini tatbiq etish imkonini beradi.

Jahon tajribasida loyiha usuli ilk bor amerikalik pedagoglar Jon Dyui (J. Dewey) va U. Kilpatrik (W. Kilpatrick) tomonidan ilgari surilgan bo'lib, uning mohiyati "bilim faoliyatda namoyon bo'ladi" degan g'oyaga asoslanadi. Hozirgi kunda Finlyandiya, Singapur, Yaponiya kabi davlatlar ta'lim tizimida loyihaviy faoliyat dizayn, muhandislik va pedagogika yo'nalishlarida samarali natijalar bermoqda.

Milliy ta'lim tizimimizda ham loyihaviy faoliyat yangi avlod davlat ta'lim standartlarining ajralmas qismiga aylangan. Unda nazariy bilimlar bilan bir qatorda ijodiy loyihalash, innovatsion fikrlash va amaliy yechimlarni yaratishga qaratilgan kompetensiyalar belgilangan. Bu esa, o'z navbatida dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini tayyorlashda loyiha usulidan keng foydalanishni pedagogik zaruriyat darajasiga olib chiqadi.

Loyihaviy faoliyat dizayn ta'limida turli ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin: o'quv-loyihalar, tadqiqot loyihalari, ijtimoiy va innovatsion dizayn loyihalari, startap va biznes-dizayn loyihalari.

Tadqiqot davomida umumkasbiy va ixtisoslik fanlarning mazmuni va qaysi fanlarning dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy-amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilganini ko'rib chiqamiz. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy-amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish va loyihaviy faoliyatga tayyorlash jarayoni zamonaviy ta'lim paradigmalari va pedagogik innovatsiyalar asosida tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishiladi.


Metodologik nuqtai nazardan, dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy-amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish va loyihaviy faoliyatga tayyorlash quyidagi ilmiy asoslarga tayanadi:

Kompetentlilik yondashuvi (N.V. Kuzmina, A.K. Markova, N.A. Muslimov) – dizayner talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarni dizayn amaliyotida samarali qo'llashga tayyorligini ta'minlaydigan tizimdir. Bu yondashuv orqali talabalarda amaliy ijodkorlik, estetik did va texnologiyaviy bilimlar uyg'unligi shakllanadi.

Tizimli yondashuv (B.S. Gershunskiy, B.V. Lomov) – dizayn ta'limining mazmuni va jarayonini o'zaro bog'liq elementlar (g'oya, kompozisiya, texnologiya, natija) majmuasi sifatida ko'radi. U loyihaviy fikrlash va metodik izchillikni ta'minlaydi.

Faoliyatli yondashuv (P.I. Balabanov, A.G. Rappaport) – talabaning dizayn jarayonida faol sub'yekt sifatida ishtirokini, ya'ni g'oya yaratish, konsepsiyani ishlab chiqish, modellash va taqdim etish kabi bosqichlarda ijodiy faollikni kuchaytiradi.

Sinergetik yondashuv (N.M. Talanchuk, G. Saymon) – dizayn ta'limini o'z-o'zini rivojlantiruvchi tizim sifatida tavsiflaydi. Unda talabaning estetik intuisiyasi, ijodiy fikrlash qobiliyati va multidissiplinar tafakkuri uyg'un ravishda rivojlanadi (3-rasmga qarang).



3-rasm. Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini loyihaviy faoliyatga tayyorlashdagi yondashuvlar


Ushbu komponentlar o'zaro integratsiyada namoyon bo'lib, dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy-amaliy kompetentligini shakllantiradi. Bu jarayon natijasida dizayn ta'lim yo'nalishidagi talabalarda mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorlik, loyihaviy fikrlash madaniyati va innovatsion dizayn yechimlar yaratish qobiliyati mustahkamlanadi.

60210400 - Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini umumkasbiy fanlar blokida rangshunoslik, materialshunoslik, dizayn tarixi, chizma va rang tasvirlari, loyihalash, kostyum tarixi fanlar o'qitiladi. Ixtisoslik fanlar blokida kostyum dizayn, tikuv buyumlarini texnologiyasi, tikuv buyumlarini konstruksiyalash, amaliy antropologiya asoslari fanlari o'qitiladi. Tadqiqotimiz doirasida mazkur fanlarning tanlanishi dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarining loyihalash faoliyatiga tayyorlash haqidagi bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishi bilan bog'liq. Zero, loyihalash u bilan o'xshashlikda qaraladi.

Dizayn ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni kasbiy-amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish va loyihalash faoliyatiga tayyorlash jarayonida ixtisoslik fanlar hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Tadqiqot doirasida 4-kurs talabalari uchun 18 soatli maxsus tanlov (kurs) fan - «Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi» kursi yaratildi. Mazkur fanning (kurs) maqsadi - talabalarda dizayn loyihasini yaratish, modellashtirish va estetik yechimni asoslash, kasbiy-amaliy kompetensiyalarini shakllantirishdir. Fan mazmuni talabalarni kiyim dizayn loyihasini yaratish, konstruksiyalash va bezash jarayonlaridagi texnologik fikrlash, kreativ yondashuv va materialshunoslik malakasini rivojlantirishga qaratilgan. Kiyimni yaratishda materiallarning kimyoviy tarkibi, kompozision xususiyatlari, ergonomik talablarga mosligi va vizual estetikasi hisobga olinadi (4-rasmga qarang).

Dars jarayonlarida kasbiy-amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari, refleksiv tahlil usullari va "Smart" "Ariz-Triz" "Blum taksionomiyasi" "keys", "loyihalash" metodikasi qo'llaniladi. Bu talabalarda dizayn jarayonini pedagogik va texnologik tizim sifatida anglash ko'nikmasini shakllantiradi. Natijada, fan dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarida quyidagi asosiy kasbiy-amaliy kompetensiyalarni rivojlantiradi:

-dizayn loyihasini ilmiy asosda yaratish; -material va texnologiya tanlashda tahliliy yondashish; -vizual va estetik yechimlarni asoslash; -axborot texnologiyalaridan foydalanish; -innovatsion va kreativ qaror qabul qilish.



4-rasm. Dizayn ta'limi yo'nalishi talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi kursini mazmuni

Quyida dizayn ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashda qo'llanilgan ta'lim texnologiyalarini ko'rib chiqamiz.

“SMART” texnologiyasi - dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarida maqsadni aniq belgilash, uning natijaviyligini baholash va loyihaviy faoliyatda samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik yondashuvdir. U orqali talabalarning kasbiy-amaliy kompetensiyalari tizimli rejalashtirish, ijodiy vazifalarni aniqlash va amalga oshirish jarayonida takomillashadi.

“ARIZ–TRIZ” (Ixtirochilik masalalarini yechish algoritmi - Tizimli ixtirochilik fikrlash nazariyasi) - muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish va ijodiy yechimlarni topishga yo'naltirilgan innovatsion metod hisoblanadi. U talabalarda tizimli, kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Blum taksonomiyasi - bu ta'limiy maqsad va natijalarni tizimli ravishda iyerarxik tartibda tasniflaydigan ilmiy-pedagogik model bo'lib, talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalariga moslashtirilgan holda, Blum taksonomiyasi quyidagicha qo'llaniladi:

Bilish (Knowledge) - dizayn nazariyasi, shakl, rang, kompozisiya, materialshunoslik haqida asosiy bilimlarni egallash. Tushunish (Comprehension) - dizayn g'oyasini anglash, model va vizual elementlar o'rtasidagi bog'lanishni tushunish. Qo'llash (Application) - amaliyotda dizayn loyihalarini yaratishda nazariy

bilimlarni qo'llash. Tahlil (Analysis) - dizayn ob'yektini tahlil qilish, estetik va funksional jihatlarini farqlash. Sintez (Synthesis) - yangi dizayn yechimlarini yaratish, kreativ g'oyalarni ilgari surish. Baholash (Evaluation) - dizayn ishining ijodiy va texnik jihatdan samaradorligini baholash.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarni loyihalash faoliyatiga tayyorlash samaradorligi ta'lim jarayonini loyihalashning mohiyati, tamoyillari va tartibi haqidagi bilimlarni shakllantirish; talabalarni loyihalash faoliyatni individual uslubini anglash; loyihalash faoliyatga yaxlit hissiy-qadriyatli munosabatni shakllantirish; loyihalashning zarurligiga ishonch hosil qilish; ta'lim muassasalari sharoitida loyihalash faoliyatini reproduktiv, ijodiy darajada amalga oshira bilish; talabalarni kasbiy-amaliy kompetenligini loyihalash faoliyati usullariga o'rgatishning adekvat metod va vositalarini tanlash kabi pedagogik shartlar yig'indisini amalga oshirish yo'li bilan ta'minlanadi.


Mazkur pedagogik shartlarni joriy qilish ta'limning an'anaviy va noan'anaviy shakllarini uyg'unlikda olib borishni ko'zda tutadi. Tadqiqot davomida dissertatsiya mavzusining mazmuni yetakchi g'oya va tamoyillarini aniqlash maqsadida muammoning tashxisiy tavsifi xarakteristikalarini va texnologik yechimlari bo'yicha ta'limning guruhli shakllari amalga oshirildi. Uning asosiy vazifasi bo'lgan dizayn ta'lim yo'nalishidagi talabalar faoliyatining materialni o'rganish va tegishli texnologiyalarni aniqlash; turli darajadagi faol va mustaqil faoliyatni ko'zda tutadigan ta'limning individual yo'nalishlarini belgilash; har bir trayektoriya uchun ish metodlari va o'quv materialining zaruriy talqinini tanlash; mavzuni o'rganishning barcha trayektoriyalari uchun turli darajadagi ta'limiy natijaga olib keladigan didaktik ta'minotni umumlashtirish, shuningdek, o'quv-metodik majmuaning boshqa tarkibiy qismlari, jumladan, talabalar uchun topshiriqlarni bajarishi bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan pedagogik jarayonni loyihalashtirishga yo'naltirishdan iborat bosqichlari mashg'ulot-konsept deb nomlandi.

Mashg'ulot-konsept ketma-ket amalga oshirishga qaratilgan tuzilma, pedagogik texnologiya, qo'llash sharoitlarini aniq tavsiflashni ko'zda tutadi hamda texnologiyalarni qat'iy tushunish va loyihalashning zaruriy minimal, amaliy jarayon tipiga mos keladigan turkumiga rioya qilib loyihalashda o'z ifodasini topadi.

Tadqiqotda noan'anaviy mashg'ulot-konsept shakli freymli o'qitish natijasida talabalar jamoasining pedagogik vazifalarni mantiqiy model ko'rinishida samarali amalga oshirishi aniqlandi quyidagi (5-rasmga qarang).

Mashg'ulot-konseptlarda kelgusi kasbiy faoliyatga maksimal yaqinlashtirilgan, muayyan amaliy-kasbiy vaziyatlarni yaratish va hal qilishga qaratilgan kontekstual ta'lim texnologiyasi – mikroo'qitish, mikrotadqiqot, mashg'ulotlarda kasbiy-amaliy vaziyatlardan keng foydalanish: videofragmentlar va Internet-resurslarni veb-kvest texnologiya yordamida namoyish qilish, bo'lg'usi loyihalash faoliyat bilan bog'liq kasbiy sifatlarni shakllantiradigan materiallarni izlashga alohida e'tibor qaratildi.

Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini loyihaviy faoliyatiga tayyorlash modeli maqsad (ayni jarayonning maqsad va vazifalari), mazmun (ta'lim oluvchilar o'quv-kasbiy faoliyatining nazariy, metodik va texnologik jarayonlari), prosessual, natijaviy-baholash komponentlaridan tashkil topgan.




5-rasm. Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini loyiha faoliyatiga tayyorlash modeli

Maqsad komponentida Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini malaka talabida belgilangan kasbiy ta'lim mazmunining zarur va yetarli hajmini egallagan, kasbiy

ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan, maxsus kurslarda o'z bilimini chuqurlashtirib, amaliy kasbiy ko'nikmalarni puxta egallagan mutaxassisni tayyorlash vazifasi qo'yilgan.

Me'yoriy-mazmuniy komponentida Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy-amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning o'quv-me'yoriy asoslari sifatida ta'limiy talablar va mehnat bozori talablarini integratsiyalash asosida DTSlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, kasbiy-amaliy kompetensiyalarini "SMART" metodi asosida shakllantirish bosqichlari, o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish ko'zda tutiladi. Prosessual komponentning tashkil etuvchilari sifatida quyidagilar belgilandi: kognitiv, operativ-pragmatik, shaxsiy-ijodiy, aksiologik sub'yektlari, kasbiy -amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta'lim muhiti (maqsad qo'yish, izlanish, tahlil), pedagogik texnologiyalarni integrativ qo'llash, ta'lim metodlari, ta'lim shakllari (nazariy, amaliy, individual), ta'lim vositalari (Blis so'rov, keys, loyxa, tushunchalar tahlili, Blum taksionomiyasi, topshiriqlar tizimi).

Natijaviy-baholash komponentida dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarida amaliy-kasbiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini baholashning motivasion-kognitiv kreativ-jarayonli izlanishli-integrativ mezonlari tanlandi. Dizaynerlik faoliyati bevosita amaliy-kasbiy faoliyat natijasi ekanligi bois, talabalarning kasbiy-amaliy kompetentligi ko'proq umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridagi amaliy mashg'ulotlarda rivojlantiriladi.



6-rasm. Dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini elektron ta'lim resursidan foydalanib amaliy mashg'ulotni tashkil etish tuzilmasi

Amaliy mashg'ulotlarda elektron ta'lim resurslaridan unumli foydalanish natijasida talaba o'quv materialini tez va qulay usulda, ya'ni ko'rish, eshitish va idrok etish orqali chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati vujudga keladi, talabaning mustaqil ta'lim olishiga to'la imkoniyat yaratadi, amaliyotda ko'rsatish

imkoni bo'lmagan vaziyatlarni ko'rish imkoniyati mavjud. Elektron ta'lim resursi ma'lum tuzilmaga ega bo'lib, unda kerakli ma'lumotni izlash, tez ochish, takrorlash kabi funksiyalar mujassam bo'ladi, tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini ko'zatish mumkin (6- rasmga qarang)

Dissertatsiyaning **“Dizayn ta'lim yunalishi talabalarini kasbiy amaliy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari va uning tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba sinov ishlarining qo'yilishi, o'tkazilgan tajriba natijalari va ularning tahlilari keltirilgan. Tajriba sinov-ishida umukasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari asosida o'qitish hamda innovatsion ta'lim metodlari asosida dizayn ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy-amaliy kompetensiyasini va loyihaviy faolyaitga tayyorlashga, ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodika ishlab chiqildi va ushbu metodika amaliyotda sinab ko'rish maqsadida belgilandi.

Aniqlovchi bosqich - tashkiliy, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: kasbiy-amaliy kompetensiyaning shakllanganlik darajasini aniqlashga imkon beradigan uchta mezon asosida nazorat vazifalari va anketa so'rovnoma yordamida talabalarning iqtisodiy kompetensiyasining boshlang'ich darajasini diagnostika qilish (past, o'rta, yuqori) dizayn fanlarni o'qitish sohasidagi qator muammolarni aniqlash maqsadida o'qituvchilardan so'rovnoma o'tkazish;

Shakllantiruvchi bosqich - amalga oshirish, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga kasbiy-amaliy kompetensiyani shakllantirish modelini joriy etishda asosiy shaxsiy xususiyatlarni, asosiy va amaliy iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirish;

Yakunlovchi kichik bosqich analitik bo'lib, u tajriba ishi natijalarini tahlil qilish, dastur va uslubiy ta'minotni tuzatish, modelni amalga oshirish shartlari va ularni sinovdan o'tkazishdan iborat.

